

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**STUDYING HUVAIDA'S CREATION ABROAD****Barno Muradova***1 st basic doctoral student**Tashkent State University of Uzbek Language and**Literature named after Alisher Navoi**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: devon, Russian oriental studies, poetic genre, publication, textual studies, mysticism.

Received: 23.10.25**Accepted:** 24.10.25**Published:** 25.10.25

Abstract: This article analyzes the process of studying huvaído's work in evrope, Russia and Turkey. The assesments of the poet's legacy by foreign orientalist, descriptions of sources and the history of publications are highlighted. The study shows that the poet's poetic legacy is also being consistently studied in the international scientific community.

HUVAYDO IJODINING XORIJDA O'RGANILISHI**Barno Murodova***1-bosqich tayanch doktoranti**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: devon, rus sharqshunosligi, she'riy janr, nashr, matnshunoslik, tasavvuf.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Huvaydo ijodining Yevropa, Rossiya va Turkiyada o'rganilish jarayoni tahlil qilindi. Xorijiy sharqshunoslar tomonidan shoir merosiga berilgan baholar, manbalar tavsifi va nashrlar tarixi yoritildi. Tadqiqot shoirning poetik merosi xalqaro ilmiy doirada ham izchil o'rganib kelinayotganini ko'rsatadi.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЕНИЯ ХУВАЙДЫ ЗА РУБЕЖОМ**Барно Мурадова***Студент 1-го года обучения в докторантуре**Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы**имени Алишера Навои**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: девон, русская востоковедение, поэтический жанр, публикация текстология, мистицизм.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс изучения творчества Хувайдо в Европе России и Турции. Особое внимание уделяется оценкам наследия поэта зарубежными востоковедами описаниям источников и истории публикаций. Исследование показывает что поэтическое наследие поэта также последовательно изучается в международном научном сообществе.

Kirish. O‘zbek adabiyoti tarixining XVIII asri, xususan, Qo‘qon adabiy muhitiga mansub ijodiy jarayonlar mustaqillikdan avval va keyingi davrlarda olimlar o‘rtasida munozaralarga sabab bo‘lgan. Sho‘rolar tuzumi davrda Huvaydo ijodiga kam e‘tibor berildi. Mustaqillik yillarida shoir merosini xolisona yondashib o‘rganish tendensiyasi shakllandi. Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo XVIII asrda Farg‘ona vodiysida yashab, ijod etgan mashhur mutasavvuf shoirlardan biridir. Uning lirik asarlari shoir hayot davridayoq keng tarqalgan, keyinchalik esa ko‘plab iste’dodli shoirlar ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Huvaydo ijodi nafaqat o‘z zamondoshlari, balki keyingi avlod vakillari uchun ham ilhom manbai bo‘lgan. Po‘latjon Domulla Qayyumiyning olti daftardan iborat “Tazkirayi Qayyumiy” asarida Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq boy materiallar mujassam. Unda Huvaydo hamda uning avlodiga mansub ijodkorlar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Muallif jumladan, shunday yozadi: “...she’rda taxallusi Huvaydo bo‘lub, mukammal bir turkiy devonidan boshqa, yana “Rohati dil” nomli tasavvuf ruhida, xurofotdan murakkab bir kitobi ham turkiydir.

Vafotidan so‘ng o‘g‘li Xolmuhammad qolmish. Bu esa hijriy 1271 (1854–55) yilda O‘shda vafot etmishdur. Nabirasi Mavlaviy Sirojiddin, taxallusi Sirojiy, vafoti 1296 hijriy (1878–79). Bu kishining o‘g‘li Salohiddin bin Sirojiddin, taxallusi Soqib, hijriy 1326-yilda (1908) “Kulliyoti Huvaydo”ni Toshkandda chop ettirmishdur. 240 betdan iborat bu asar 4400 nusxada nashr etilgan bo‘lib, Muhammad Shohmurod bin Shoh Ne‘matullo Shoshiy tomonidan xattotlik bilan ko‘chirilgandir”, - deyiladi.

Muhokama va natijalar. Xo‘janazar Huvaydo tarjimai holi, faoliyati, “Devon” va “Rohati dil” asari o‘zi hayotlik chog‘idayoq adabiyot ahlining e‘tiborini tortgan. Huvaydo ijodini o‘rganishni boshlab bergan shaxslardan biri Amir Umarxondir. XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1810 –1822) tomonidan din va dunyoviy ilmlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. “Turkistanskiy kurer” gazetasi xabarlariga ko‘ra, xonlik qorilariga Xo‘janazar Huvaydoning ijodiy merosini o‘rganish topshirig‘i berilgani bu boradagi tashabbuslarning isboti sifatida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillikkacha Huvaydo ijodini o'rganishga oid tadqiqotlar izchil davom ettirildi. O'zbek adabiyotshunosligida professor N. Komilov, I. Sulton, O. Usmon, B. Valixo'jaev, Y. Is'hoqov kabi olimlarning tasavvuf, xususan, naqshbandiylik tariqati vakillariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ma'lumotlar mavjud. 1959-yili M. Afzalov "Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o'rganaylik" dab nomlangan maqolasida shoirning ijodi chuqur va tizimli o'rganilmaganini ta'kidlaydi.

Shoir ijodini tadqiq etish borasida sezilarli qadamlardan biri — akademik Vohid Zohidov va Suyuma G'anieva tomonidan tayyorlangan va 1961-yili nashr etilgan "Tanlangan she'rlar" to'plamidir. Bu to'plamga 72 ta g'azal va 11 ta ruboiy kiritilgan va u Huvaydoning badiiy salohiyati va falsafiy tafakkurini ochib beruvchi dastlabki muhim to'plamlardan biri hisoblanadi.

Huvaydoning hayoti va she'rlaridan parchalar 1967-yil "O'zbek adabiyoti tarixi" uchinchi jildida o'z aksini topgan.

To'xtasin Jalolovning "Nafosat olamida" (1976) asari, Ismatulloh Abdulloh tahriri ostida 1998-yili "Farg'ona" nashriyotida chop etilgan "Huvaydo qildi ishq" to'plami, 2005-yili "Yangi asr avlodi" nashriyotida Ismatulloh Abdulloh va Qodirqul Ro'zmatzoda tomonidan tayyorlangan she'riy devon, 2007-yili nashr etilgan "Ishq aro oshiq" to'plami ham (92 ta g'azal kiritilgan) e'tiborga loyiqdir.

1990-yili A. Xudoyberdiyev himoya qilgan "Jizn i tvorchestvo Xodjanazara Huvaydo" mavzusida nomzodlik disertatsiyasida shoirning hayoti, lirikasining mavzu doirasi, estetik-gnoseologik yondashuvlari asosida tahlil qilingan.

1994-yili Saidbek Hasanov va Nilufar Javonmardiyeva tomonidan "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyotida, 2011-yilda esa "Navro'z" nashriyotida professor Haydar Aliqulov tahriri ostida "Rohati dil. Ibrohim Adham" kitobi chop etilgan va nashr avvalida Huvaydo asarlarining mazmun-mundarijasi va tasavvufiy konteksti yoritib berilgan.

Zabardast o'zbek olimi Nusratulla Jumaxo'janing "Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros" (XVII-XIX asrlar o'zbek she'riyati asosida) mavzusida 1999-yil himoya qilgan tadqiqot ishida Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab she'riyati mavzu ko'lamini tahlil qilish bilan birga Huvaydo merosida so'fiyona qarashlarning muhim jihatlarini ko'rsatib beradi.

Qodirqul Ro'zmatzoda 2020-yil himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida esa Huvaydoning tasavvufiy qarashlarini chuqur tahlil qilgan. Unda shoirning So'fi Ollohyor va Boborahim Mashrab g'oyalari bilan g'oyaviy yaqinligi, hayoti va shajarasiga oid manbalar, shuningdek, sharqshunoslik qo'lyozmalari fondidagi Huvaydoning yettita devoni (12312, 9927, 11513, 7522, 7486, 6957, 9817, 7154) mavjudligi haqida ma'lumot berib o'tgan.

Huvaydo ijodini o'rganish va targ'ib etishda respublikamiz OAV sahifalarida chop etilayotgan ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalarning o'rni muhim. Ergash Ochilov, Nodir Hasanov,

Dilfuza Zaripova, Mohira Ankabayeva, Z. Amonovalarning qator maqolalari Huvaydo ijodining turli tomonlarini qanrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Huvaydo hayoti va ijodiy merosi nafaqat o'zbek olimlari, balki uzoq Sharq va G'arb olimlari tomonidan o'rganilgan.

Yevropada o'rganilishi. Huvaydo ijodi va merosi turli davrlarda o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, u hali to'la tadqiq etilmagan adabiy meros sohibi hisoblanadi. XX asr boshlaridan boshlab rus va G'arbiy Yevropa sharqshunosligida Huvaydo ijodiga ilmiy qiziqish ortdi. Bulardan biri Martin Hartman Yevropa mamlakatlarida arabshunos olim sifatida obro' topgan bo'lib, o'zbek adabiyoti namunalari G'arb mamlakatlarida birinchilardan bo'lib yoyilishiga jonbozlik ko'rsatgan yetuk inson sifatida qadrlanadi. Uning "Chig'atoy tili" darsligi mana shu zahmatlarining mevasidir. Kitobning III bobida "Devoni Huvaydo"ga oid tadqiqotlar G'arb olimlarining fikrlari bilan boyitilgani jihatidan ahamiyatlidir. Shuningdek, olim Huvaydoning 10 ta g'azalini nemis tiliga qilgan tarjimalari G'arb olimlari orasida shoirdan boxabar bo'lish imkonini berdi.

O'zbek olimlaridan Muso Tojixodjeyev "O'zbek adabiyoti namunalari Martin Xartman tarjimasi va talqinida" tadqiqotida olimning xizmatlarini o'rganib, Huvaydo g'azallarining, nafaqat, O'zbekiston va Markaziy Osiyoda, balki G'arbda, shuningdek, AQShning Toledo universitetida, Doktor Natan Lait tadqiqotlarida ("Slippery Paths"), Uyg'ur Maqom qo'shiqlari va Turk adabiyoti doirasida o'rganilganini qayd etadi. Bu Huvaydoning faqat diniy yoki milliy emas, balki bashariyatga xos tasavvufiy ahamiyatga ega asarlar yaratganini anglatadi.

Shuningdek, E. J. W. Gibb Memorial fondi homiyligida 1969-yili chop etilgan H. F. Hofmannning mashhur olti jildlik "Turkish Literature: A Bio-Bibliographical Survey" asarining uchinchi jildi to'liq turkiy adabiyotga bag'ishlangan bo'lib, 146-149-sahifalarda Huvaydoning asarlari va uning qo'lyozma holatida saqlanish manbalari haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi.

H. F. Hofman tadqiqotida shoir "Devon" va "Rohati dil" asarining Leningrad, Toshkent, Qozon toshbosma nusxalariga e'tibor qaratadi. Shuningdek, Huvaydo devoni Istanbul nashrida saralangan 200 ta g'azal kiritilgani haqida ma'lumot beradi.

Rossiyada o'rganilishi. N. F. Gavrilovning 1927-yil Toshkentda nashr etilgan "O'rtaosiyolik shoir va so'fiy Huvaydo" nomli risolasida shoirning tarjimai holi va hayoti haqida mulohazalar bildirgan. Ushbu maqola Huvaydo shaxsini emas, balki uning G'arb sharqshunosligida qanday yoritilganini bayon etgani bilan ahamiyatlidir. Maqolada Gavrilov Huvaydoni "xalq shoiri" sifatida baholaydi. Muallif shoir yashagan davrning umumiy manzarasini tasvirlab, Huvaydoni «...одним из последних могикан – носителей старых традиций турецкой суфийской поэзии Средней Азии-"Oxirgi so'fiy mohikanlardan biri..." – bu uning so'fiylik an'anasi yakunlanayotgan palla vakili sifatida qaralganini ko'rsatadi.

Tili soddaligi va arabcha-forscha terminlarning kamligi tufayli, Huvaydo G'arb o'quvchisi uchun "o'qilishi oson" shoir sifatida e'tirof etiladi.

Turkiyada o'rganilishi. Turk olimlarining Huvaydo faoliyati va merosini o'rganishga oid ishlarini ikki turga bolish mumkin: 1. Huvaydoni shaxsiyati, tariqat vakili sifatida tadqiq qilish 2. Huvaydo asarlarining Turkiyada mavjud manbalar asosida matniy, uslub va til xususiyatlarini tadqiq etish. Turkiyada o'rta asrlar o'zbek adabiyotiga nisbatan "Chig'atoy adabiyoti" atamasini qo'llanilib kelinadi. Shunga ko'ra shoir haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri sifatida Janos Eckmanning "Chig'atoycha el kitobi" asarini keltirish mumkin. Muallif asarda turkiy Chig'atoy davrini uch davrga ajratadi: Klassikkacha bo'lgan davr (XV asr boshlaridan 1464-yil Navoiyning ilk asari tartib berilishiga qadar), Klassik davr (1464–1600), Klassikdan keyingi davr (1600 – 1921).

So'nggi davrda ijod qilgan shoirlar qatorida Abulg'azi Bahodirxon, Boborahim Mashrab, Sayqaliy, Turdi, Munis, Ogahiy, Umarxon, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy, Nodir, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Usmonxo'ja Zoriylar qatorida Huvaydo nomi ham tilga olinadi.

Keyingi yillarda turk olimlari o'rtasida Huvaydo ijodi, uning asarlariga qiziqish ortganini shoirning "Devon" i va "Rohati dil" asarlarini ilmiy asosda o'rganish ishlari boshlanganidan payqash mumkin. Bu boradagi dastlabki izlanishlardan biri Fotih universitetida 2012-yilda yozilgan Badriye Kaya tomonidan yozilgan "Hoca Nazar Hüveyda ve Divanının Analizi: Metin, Dil ve Edebi" nomli tadqiqot ishidir. Unda o'zbek klassik adabiyotining XVIII asrda Turkiston hududida rivojlanishi, shuningdek, Huvaydoning islom tasavvufiga qo'shgan hissasi va lirikasidagi badiiy xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Muallif 1903-yili Toshkentda nashr etilgan 141 sahifali toshbosma devon asosida Huvaydo she'riyati mavzu ko'lami, obrazlar, til xususiyatlari hamda lirikasida uchraydigan badiiy san'atlarni misollar orqali tahlil qiladi.

Yana bir turk tadqiqotchisi — Funda Toprak "Hoca Nazar Hüveyda Rahat-ı Dil (İnceleme – Metin – Dizin)" nomli ilmiy tadqiqoti Huvaydo qalamiga mansub "Rohati dil" asarining tahliliga bag'ishlangan. Bunda Xo'janazar Huvaydo shaxsiyati, tarjimai holi, ijodiy o'rni, "Rohati dil" asarining janr, mazmun va didaktik-falsafiy qirralari ochib beriladi, tilshunoslik jihatidan tadqiq etiladi.

Olimaning ta'kidlashicha, "Rohati dil" asari o'zbek adabiyotining mumtoz davridan keyingi davriga mansub bo'lib, bu davr hali yetarlicha o'rganilmagan. Shoir asarda oddiy va sodda xalq iboralaridan foydalanadi, xalqqa yetkazishda diniy-didaktik uslub yetakchilik qiladi, lirikada tasavvufiy motivlardan foydalanadi. Asarda XVIII asr turkiy tilning so'nggi davrdagi xalqona soddalashuv jarayonini ko'rish mumkin. Bu jihatlar uni turkiydan – o'zbek tiliga o'tish bosqichidagi muhim til yodgorligi ekanligini belgilaydi.

Olimaning “Hoca Nazar Hüveyda'nin kıyametnameleri” (Kıyametnames of Khoja Nazar Huveyda) – “Rohati dil” asarining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan “Qiyomatnoma” janridagi masnaviylari tahlili ham diqqatga sazovor.

Funda Toprak tadqiqotining Huvaydo ijodi bo‘yicha Turkiyada amalga oshirilgan tadqiqotlardan farqli va o‘ziga xos jihati shundaki, “Rohati dil” tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan, bayt va misralardagi so‘z va jummalarni tanlashda Huvaydoning so‘z tanlash mahorati, turkiy til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanishi tahlil jarayonida yoritilgan. Tadqiqotning lug‘at qismida matnda tanlab olingan so‘zlarning ma‘nosi ko‘rsatilgan, so‘zlardagi qo‘shimchalar va ularning qo‘llanilishi izohlangan. Huvaydo “Rohati dil” manzumasi toshbosmasi tarixiy-qiyosiy usulda o‘rganib, shoir siymosining o‘z davri adabiy muhitida tutgan o‘rni, Huvaydoning ijodkor sifatidagi mavqei, turkiy til va adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissi, shoir poetik niyati uning asarida aks etishini adabiyotshunoslik va adabiy manbashunoslik, tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rgangan.

Xulosa. Turkiyada Huvaydo ijodiy merosining o‘rganilishiga oid kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, turk olimlari XVIII-XIX asr boshlaridagi O‘rta Osiyoda turkiy adabiyot rivoji, shuningdek, Huvaydo biografiyasi, shoirlik mahoratini ham zo‘r qiziqish bilan tadqiq etishgan. Bu holatni Huvaydo asarlarining Turkiyada, jumladan, Istanbulda chop etilganligi bilan ham izohlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bakhtiyorovna, Z. D. (2023). History of the Huvaydo's works study. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(10),
2. Amonova Z. Q., Olimova M. 2022. “Huvaydoning yangi topilgan she‘rlari”. Oltin bitiglar 3: 21–35.
3. Bedriye Kaya. Hoca Nazar Hüveyda ve Divanının Analizi: Metin, Dil ve Edebi içerik yönünden inclemesi Yüksek lisans tezi. Fatih Üniversitesi. İstanbul, 2012.
4. Ergash Ochilov. Huvaydo ijodida Navoiy an‘analari. // ARES Volume 4 | Conference Proceedings 1 | 20234.
5. Hofman H. F. Turkish Literature: A bio-bibliographical survey. // Section III. Great Britain and Ireland, 1969. B.350.
6. Toprak Funda . Hoca Nazar Hüveyda Rahat-ı Dil. (İnceleme – Metin – Dizin) // Grafik Yayinlari. –Ankara, 2017. – B.524.
7. Toprak Funda. Hoca Nazar Hüveyda'nın kıyametnameleri (Kıyametnames of Khoja Nazar Huveyda) Turkish Studies, Volume 7/14, s. 179-213.
8. Афзалов М. Хувайдо ва Машраб ижодини атрофлича ўрганайлик. // “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1959-йил 20-июн. № 49 (354).

9. Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос (XVII-XIX асрлар ўзбек шеърини асосида) ф.док., дисс. – Тошкент, 1999.
10. Рўзматзода Қ. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг (XVII-XVIII) асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни фил. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2020.
11. Тоджиходжаев М. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. – Тошкент: Баёз, 2018. – Б.180.
12. Худайбердиев А. Жизнь и творчество Ходжа Назара Хувайдо. дисс....канд. филол. наук. - Ташкент: 1990. -306 с.